

AXBOROT XURUJINING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Raximov Gayrat Buvaxanovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti 2 kurs magistranti

Аннотация: В данной статье усиливается информационная атака СМИ, что является причиной широкого распространения манипулятивных процессов. Необходимо вовремя осознавать такие угрозы и создавать против них особый иммунитет. Он основан на том, что везде, где есть духовный вакуум, затаившиеся в стороне пытаются внедрить деструктивные идеи и отравить умы молодежи. «Выявлено, что злонамеренное отношение таких сил направлено в первую очередь против нашей богатой и древней духовности, и они всяческими методами и средствами пытаются отделить наш народ от этого бесценного богатства.

Ключевые слова: Духовная пропасть, информатизация общества, информационные технологии, молодежная государственная политика.

Axborot davlat va jamiyat rivojlanishining muhim omilidir. Jamiyat axborotsiz yashay olmaydi. Dunyo yagona axborot makoniga aylangan bir pallada undan “holi” bo‘lish ham mumkin emas. Mamlakatimizda ham jamiyatni axborotlashtirish qonun bilan belgilab qo‘yilgan.

Ma’lumki, axborot insonning doimiy ehtiyojiga aylangan. Har kuni o‘nlab telekanallar, radioeshittirishlar, gazetalar va internet orqali qancha axborotlarga ega bo‘lishidan qat’iy nazar yana axborot kutib yashaydi. Bugun keng jamoatchilikka, ayniqsa talabchan yoshlarga qanday axborotlar zarurligini izohlashga hojat yo‘q. Ular mamlakatimizda va jahonda yuz berayotgan eng muhim voqea-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy axborotga ega bo‘lib borishni istaydilar.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining axborot xuruji kuchayib, manipulatsion jarayonlarning keng yoyilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu kabi tahdidlardan o‘z vaqtida ogoh bo‘lib, unga qarshi maxsus immunitetni hosil qilish davr talabi. Qaerdaki ma’naviy bo‘shliq paydo bo‘lsa, chetda poylab yurgan kimsalar buzg‘unchi g‘oyalarni tiqishtirishga va yoshlar ongini zaharlashga harakat qiladilar. “Bunday kuchlarning g‘arazli munosabati avvalo boy va qadimiy ma’naviyatimizga qarshi qaratilgani, ular xalqimizni ana shu bebaho boylikdan judo qilish uchun har xil usul va vositalar bilan zo‘r berib urinayotgani barchamizga



tashvishlantirmasdan qolmaydi, albatta. Nega deganda, insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya‘ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma‘naviyatidan judo qilishga urinadi”[1:11].

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan urush-talofat, buzg‘unchilik, inqilobiy harakatlar va terrorchilikka axborot xuruji katta ta‘sir ko‘rsatmoqda [2:112]. Chunki axborot tom ma‘noda yangi asrning eng qimmat materialiga aylanmoqda. OAV va matbuotning axborot yetkazish imkoniyati va kuchidan g‘arazli niyatda foydalanuvchi buzg‘unchi kuchlar axborotini o‘z manfaatlariga xizmat qildirishga urinmoqda. Bilamizki, globallasuv jarayonida arziyasiz, ahamiyati katta bo‘lmagan bir xabar ham ba‘zan katta tarixiy voqea va global hodisaga sabab bo‘lishi mumkin.

XX asrning yetakchi nemis faylasuflaridan biri Osvald Shpengler o‘zining “G‘arbning halokati” asarida axborot xurujining odamlar ongidagi ta‘siri haqida quyidagicha bashorat qilgan edi: “Yaqin kelajakda jahonning ikki yoki uch gazetasi provensial gazetalar fikrini boshqaradi va ular yordamida xalqlar irodasini bo‘ysindirishga urinadi. Hamma narsa esa shu gazetalarni nazorat qilib turguvchi oz sonli kishilar tomonidan hal etiladi”[3:111]. Ammo bu demokratik davlat va fuqarolik jamiyati g‘oyalariga umuman to‘g‘ri kelmaydi. Shu sabab insonlar ongini zaharlashdan saqlanish uchun milliy g‘oya va ma‘naviy merosimizga tayanishimiz, shu asosda ma‘naviy ozuqlanishimiz kerak. Zero, ma‘naviyati yuksak, irodasi mustahkam inson axborot xurujidan himoyalani barobarida, axborot olish madaniyatiga ham ega bo‘ladi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va axborot tarqatish vosita hamda usullarining kengayishi, o‘z navbatida bu yo‘lda har xil ma‘naviy buzg‘unchilik g‘oyalarini boshqarishni murakkablashtirdi. Sababi, birgina kitob chop etishning miqyosi va ko‘lami insonning yangi bilimlarni egallash sur‘atlariga mos tushadi. Shunday ekan, agar dastgoh kashf etilgan dastlabki paytlarda Yevropada yiliga taxminan 1000 nomdagi kitob chop etilgan bo‘lsa, hozirda kuniga 1000 nomdagi kitob chop etilmoqda. Shu raqamlarning o‘ziyoq axborot texnologiyalarining naqadar tez sur‘atlarda rivojlanib borayotganidan dalolatdir. Ammo globallasuv jarayonida birgina noo‘rin va buzg‘unchi g‘oyalar ko‘pgina salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Buning birlamchi sababi ham kompyuter, internet va boshqa axborot tarmoqlarining jadal rivojlanishi sayyoraviy xarakter kasb etishidir. 1950



yilda kashf etilgan kompyuter ayniqsa, bilim va har qanday axborotni qabul qilish va uzatishni yanada jadallashtirib yubormoqda.

Insonning axborot sohasidagi xavfsizligini ta'minlash uchun fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish, ya'ni ularga axborotni saralash va undan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog'liq [4:130]. Ong darajasi bilim darajasiga, bilim darajasi esa o'z navbatida bilishga, ya'ni reallik va borliqdagi voqea-hodisalar mazmun-mohiyati bilan vobastadir. Ko'r-ko'rona yoki atayin qorani oqqa bo'yab ko'rsatish mavjud holatni maqsadli o'zgartirishga olib keladi. Axborot maydonida ham o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab axborotni noxolis, noaniq yetkazilishi axborot xurujining debochasi, desak xato bo'lmaydi. Shuning uchun birinchi navbatda, axborot yetkazuvchi shaxs xolislik, aniqlik va tezkorlikka tayanishi, axborot oluvchi esa uni mutlaqlashtirmasdan, o'z shuuri darajasida tahlil qilishi, so'ng qabul qilishi, ishonch bildirishi darkor.

“Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ'ib qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunda esa behayolik, shafqatsizlik va zo'ravonlik haqida hikoya qiluvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab bo'luvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlarni namoyish etishning taqiqlanishi belgilab qo'yilgan.

Yoshlar bilan muntazam muloqotda bo'lishlariga erishish, internet tarmog'ini milliy qadriyat va an'analarimizni o'zida aks ettiruvchi veb-saytlar bilan boyitish, ta'lim muassasalarini internet tarmog'iga ulashda odob-axloq qoidalariga muvofiq bo'lmagan veb-saytlardan foydalanishga cheklovlarni joriy etish, yoshlarda axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur. Aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo'lishini ta'minlash, har bir fuqaro tafakkurida mafkuraviy immunitetning shakllanishiga sharoit yaratish, g'oyaviy muxoliflarimizning harakatlariga qarshi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni kuchaytirish, voyaga yetmagan yoshlarga oid milliy qonunchiligimizga ma'naviy tahdidlar, axborot xurujlarining oldini olishga qaratilgan zarur o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish zarur.

Yurtimizda internet xalqaro axborot tarmog'ini milliy ma'lumotlar bilan to'ldirish ham bugungi kunning eng dolzarb zaruriyatidir. Ta'kidlash joizki, bu borada bir qator yutuqlarga erishilmoqda.



Agar biz axborot olish madaniyatini shakllantirsak, milliy g'oyamiz va ma'naviy merosimizga tayanib faoliyat olib borsak, axborot xurujiga qarshi immunitetni kuchaytirgan bo'lamiz.

References:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008 й. 11-бет.
2. Qaxharova, M., & Absattorov, B. M. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. *The Light of Islam*, 2020(1), 110-115.
3. Qaxharova, M., & Absattorov, B. M. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. *The Light of Islam*, 2020(1), 110-115.
4. Sapayevich J. X. OPPORTUNITIES OF CENTRAL ASIAN STATES IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL GEOPOLITICAL RELATIONS //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – С. 129-131.
5. Safojevich, J. X., & Farrukh, N. (2021). The Relationship Between the West and the Islamic World in International Geopolitical Processes. *Middle European Scientific Bulletin*, 17, 280-283.
6. Жуманиязов, Х. С., & Нигманова, У. Б. (2019). Трудовой подвиг народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. *Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны*, 145.
7. Qaxharova, M. (2022). ЖАДИДЧИЛИК ТАЪЛИМОТИДА ЖАМИЯТ МУҲИТИНИ АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Теория и практика современной науки.
8. Qaxharova, M. (2022). Ma'naviy tarbiya strategiyasi. Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа.
9. Санакулов, А. (2017). Духовность-основа информационной безопасности. *Молодой ученый*, (19), 231-234.10.
10. Sanakulov, A. N. (2019). MAINTENANCE OF THE WORLD OUTLOOK SECURITY IN THE INFORMATION SOCIETY. *Социосфера*, (4), 54-57.
11. Санакулов, А. Н. (2022, January). ВЫРАБОТКА ИНФОРМАЦИОННОГО ИММУНИТЕТА-КАК ЗАЛОГ ПОВЫШЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ЛЮДЕЙ. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 2, No. 1).
12. Sanaqulov, A. N. Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. *JournalNX*, 897-903.
13. Nazarovich, S. A., & Olimjanovich, X. A. (2022). FEATURES OF PREVENTING METAMORPHOSIS OF SPIRITUAL AND MORAL



- VALUES IN THE VIRTUALIZATION OF PUBLIC LIFE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
14. Olimjanovich, X. A. (2023, January). МОНИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА ТАСАВВУФ ЎЗИГА ХОС ЎХШАШЛИК ВА ФАРҚЛАР. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 244-251).
15. Эшпулатов, М. (2023, January). ЎҚУВЧИ ЁШЛАРДА МАЪНАВИЙ-ТАРБИЯВИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АДАБИЁТ ОМИЛИ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 186-195).
16. Абдурахмонов, У. У. (2023, January). ЁШЛАР ОНГГИДА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТНИ ОШИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 262-272).
17. Абдурахмонов, У. У. (2023). РОЛЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У МОЛОДЁЖИ В ОБЩЕСТВЕ. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(1).
18. Туратошева, С. Р., & Абдурахмонов, У. У. (2016). Зависимость от интернета и человеческий фактор. *Бюллетень науки и практики*, (5 (6)), 255-258.
19. Абдурахмонов, У. У., & Исломов, Б. С. (2016). Виды и роль здоровой социальной конкуренции в достижении профессионального мастерства молодежью. *Социология и право*, (1 (31)), 16-21.
20. Абдурахмонов, У. У., & Аликулов, М. М. (2016). Роль здоровой социальной конкуренции в постижении профессионального мастерства молодежью в Узбекистане. *Бюллетень науки и практики*, (3), 169-171.
21. Абдурахманов, У. У., Шеров, М. Б., & Наврузов, О. Э. (2015). Роль здоровой социальной конкуренции в постижении профессионального мастерства молодежью в Узбекистане. In *Инновационные направления в научной и образовательной деятельности* (pp. 147-149).
22. Абдурахмонов, У. У., & Шеров, М. Б. (2015). Социальные аспекты смены поколений в системе образования Узбекистана. *История и современность*, (2 (22)), 114-118.
23. Абдурахмонов, У. У. (2015). МЕСТО И РОЛЬ ЗДОРОВОЙ СОЦИАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ В ПОСТИЖЕНИИ



ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА
МОЛОДЕЖЬЮ. Редакционная коллегия, 286.

24. Tuxtamratovna, S. A. (2022). Issues of codification of norms of Islamic law. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 311-314.
25. Sanaqulov, A. N. Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. *JournalNX*, 897-903.
26. Санакулов, А. (2017). Духовность-основа информационной безопасности. *Молодой ученый*, (19), 231-234.
27. Nazarovich, S. A. (2022). DEVELOPMENT OF INFORMATIONAL IMMUNITY AS THE KEY TO INCREASING THE INFORMATION CULTURE OF PEOPLE. *Conferencea*, 191-196.
28. Nazarovich, S. A., & Olimjanovich, X. A. (2022). FEATURES OF PREVENTING METAMORPHOSIS OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE VIRTUALIZATION OF PUBLIC LIFE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
29. Sanaqulov, A. (2022). FEATURES OF PREVENTING METAMORPHOSIS OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE VIRTUALIZATION OF PUBLIC LIFE. *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS)*.
30. Санакулов, А. Н. (2022). ОБЕСПЕЧЕНИЕ МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(5), 290-296.
31. Nazarovich, S. A. (2022). SPIRITUAL ASPECTS AND SECURITY IN THE INFORMATION SOCIETY. *Conferencea*, 94-99.
32. Санакулов, А. Н., & Бобоёров, Ш. Б. (2022). ЁШЛАРДА ВИРТУАЛ РЕАЛЛИК (VR) ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ КЎНИКМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(5), 281-289.
33. Olimjanovich, X. A. (2023, January). МОНИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА ТАСАВВУФ ЎЗИГА ХОС ЎХШАШЛИК ВА ФАРҚЛАР. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 244-251).
34. Абсатторов, Б. (2019). ШАХС МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ БАРКАМОЛЛИГИ МЕЗОНЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
35. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2020). ИНСОН ФАОЛИЯТИДА АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ



МЕЗОНЛАРИ. Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха.

36. MAMARASULOVICH, A. B. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. *Scienceweb academic papers collection*.
37. MAMARASULOVICH, A. B. (2019). Общность общечеловеческих и национальных ценностей в нравственном развитии. *ILM SARCHASHMALARI*.
38. MAMARASULOVICH, A. B. (2018). INNOVATORY METHODS OF WORKING WITH UNORGANIZED YOUTH. *European Science Riview*.
39. MAMARASULOVICH, A. B. (2018). Zamonaviy sivilizatsiya rivoji va uning axloqiy mezonlari. *TDPU ILMIY AXBOROTLARI*.
40. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ–ЎЗ-ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 167-173.
41. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
42. Mukhammadievich, K. J., & Mamarasulovich, A. B. (2022). POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONFLICT OF PHILOSOPHY AND SUFISM. *Conferencea*, 46-56.
43. Mukhammadievich, K. J., Mamarasulovich, A. B., & Olimjanovich, X. A. (2022, December). THE POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONTROVERSY OF THE HISTORY OF PHILOSOPHY AND SUFISM. In *E Conference Zone* (pp. 17-25).
44. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 154-163.
45. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *Conferencea*, 197-201.
46. Mukhammadievich, K. J., & Mamarasulovich, A. B. (2022). POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONFLICT OF PHILOSOPHY AND SUFISM. *Conferencea*, 46-56.
47. Mukhammadievich, K. J., Mamarasulovich, A. B., & Olimjanovich, X. A. (2022, December). THE POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONTROVERSY OF THE HISTORY OF PHILOSOPHY AND SUFISM. In *E Conference Zone* (pp. 17-25).
48. Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich. (2023). YOSH AVLODNI MILLIY



- VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH–XALQIMIZ TARBIYAVIY AN’ANALARINING O’ZIGA XOS JIHATLARI SIFATIDA. *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*, 2(1), 273–281.
49. Мухаммад, Ж. (2011). Хожа Мухаммад Порсо ва унинг «Фасл ал-хитоб» асари [Хваджа Мухаммад Парса и его труд “Фасл алхитаб”]. *СИНО маънавий-маърифий, илмий-адабий, фалсафийирфоний уч ойлик журнали*.
50. Мухаммад, Ж. (2010). Кўзгу хайрати. *Шеърий тўплам. Тошкент. “TAMADDUN*.
51. Мухаммад, Қ. (2008). Таҷаллӣ. *Маҷмӯаи шеър. Тошканд, Интишороти илмии давлатии “Доиратулмаорифи миллии Ўзбекистон*, 44.
52. Холмўминов, Ж. (2008). Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти [Джами и учение ваҳдат ал-вуджуд]/Масъул муҳаррир: Н. Комилов. *Тошкент: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi*, 232.
53. Халмуминов, Д. (2006, May). Влияние учения Ибн ал-‘Араби на развитие мистических аспектов суфийских орденов Центральной Азии. In *Суфизм в Иране и*

